



SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TIL O'QITISH JARAYONINING SAMARADORLIGI

Sattarova Dilrabo Ikrambayevna

Samarqand davlat chet tillar instituti

sattarovadilrabo25@gmail.com

Norova Zohida Azimjonovna

Samarqand davlat chet tillar institutining 2-kurs talabasi

norovazohida@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt asosida til o'qitish jarayonining samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 20 nafar talaba ishtirokida tajriba o'tkazilib, dastlab sun'iy intellektsiz bilim darajasi aniqlangan, so'ng qisqa vaqt ichida sun'iy intellekt yordamida o'rganish natijalari baholangan. Natijalar sun'iy intellekt o'quvchilarning bilimini tezkor oshirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, uning ayrim cheklavlari ham muhokama qilindi. Tadqiqot yakunida sun'iy intellekt va an'anaviy metodlarni uyg'unlashtirish eng maqbul yondashuv ekani asoslab berildi hamda kelgusida chuqurroq izlanishlar zarurligi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, til o'qitish, samaradorlik, individual yondashuv, interaktivlik, innovatsion metodlar.

Kirish:

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini o'rganish shaxsiy rivojlanish hamda professional muvaffaqiyatning ham muhim omiliga aylanib bormoqda. Xalqaro hamkorlikning kengayishi, ta'lim va ish imkoniyatlarining chegaralardan chiqib ketishi natijasida til bilish darajasi zamonaviy inson uchun asosiy kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy til o'qitish metodlari har doim ham o'quvchilarning individual ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti shuning ta'sirida o'quvchilarning bilim darajasi, o'rganish tezligi, qiziqishlari va psixologik xususiyatlari turlicha bo'lgani sababli yagona yondashuv asosida olib boriladigan darslar ko'pincha kutilgan samarani bermavaryapti.

So'nggi yillarda texnologiyaning jadal rivojlanishi, xususan sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining paydo bo'lishi ta'lim tizimiga yangi imkoniyatlar olib kirdi. Bu jarayonda SI asosidagi dasturlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda shunga mos ravishda o'quv materiallarini taklif etish imkonini beradi. Bu esa til o'rganish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va moslashuvchan qilishga xizmat qiladi. Masalan, SI yordamida ishlab chiqilgan mobil ilovalar va onlayn platformalar o'quvchiga real vaqt rejimida fikr-mulohaza berishi, xatolarini darhol tuzatishi va talaffuzini yaxshilashga yordam berishi ham mumkin.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosida til o'qitish faqat texnologik yangilik sifatida emas, balki pedagogik yondashuv sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki u o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi an'anaviy munosabatlarni qisman o'zgartirib, o'quvchini faol subyektaga aylantiradi. O'quvchi mustaqil ravishda bilim olish jarayonida faol ishtirok etadi, o'z natijalarini kuzatadi va o'z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omillardan biridir.



Biroq, sun'iy intellektni til o'qitish jarayoniga joriy etish bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnologiyaga haddan tashqari bog'lanib qolish, jonli muloqotning kamayishi, barcha hududlarda texnik imkoniyatlarning bir xil emasligi kabi omillar bu jarayonning samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt o'qituvchining o'rnini to'liq bosa oladimi yoki yo'qmi degan masala ham hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi sun'iy intellekt asosida til o'qitish jarayonining samaradorligini tahlil qilish, uning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash hamda an'anaviy ta'lim usullari bilan qiyosiy o'rganishdan iboratdir. Shuningdek, ushbu tadqiqot orqali sun'iy intellektdan samarali foydalanish yo'llari va uni ta'lim jarayoniga optimal tarzda integratsiya qilish bo'yicha takliflar mavjud.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt asosida til o'qitish samaradorligini aniqlash maqsadida kuzatuv va tajriba usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda jami 20 nafar talaba ishtirok etdi. Dastlab, talabalarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash uchun ularga oldindan o'rganilmagan, ya'ni ular uchun yangi bo'lgan mavzu asosida test topshiriqlari berildi. Ushbu bosqichda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishga ruxsat berilmadi. Olingan natijalar talabalarning mazkur mavzu bo'yicha bilim darajasi past yoki o'rta darajada ekanligini ko'rsatdi.

Keyingi bosqichda talabalarga aynan shu mavzuni sun'iy intellekt vositalari yordamida mustaqil ravishda o'rganish uchun 10 daqiqa vaqt berildi. Talabalar ushbu jarayonda turli sun'iy intellekt platformalaridan foydalanib, mavzuni tezkor o'zlashtirishga harakat qildilar. Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalarga yana shu mavzu bo'yicha qayta test topshirish taklif etildi.

Natijalar shuni isbotladiki, sun'iy intellektdan foydalangan holda qisqa vaqt ichida o'rganilgan bilimlar sezilarli darajada oshdi, ammo ko'pchilik talabalar test natijalarini yaxshilagan bo'lib, ayrim hollarda yuqori ko'rsatkichlarga erishildi. Bu esa sun'iy intellekt vositalarining o'quv jarayonida tezkor va samarali o'rganishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mazkur kuzatuv natijalari sun'iy intellektning til o'qitish jarayonida qo'llanilishi samaradorligini amaliy jihatdan asoslab beradi.

Natija

Tadqiqot natijalari sun'iy intellektdan foydalanish til o'rganish jarayonida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin ekan. Dastlabki test natijalari tahlil qilinganda, 20 nafar talabadan aksariyati past va o'rta darajadagi ko'rsatkichlarni qayd etgani aniqlandi. Bu holat mavzuning ular uchun yangi ekanligi hamda oldindan tayyorgarlik mavjud emasligi bilan izohlanadi. Ko'pchilik talabalar savollarga to'liq va aniq javob bera olmagan, ayrim hollarda esa taxminiy javoblar yaqqol seziladi.

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalangan holda 10 daqiqa davomida mavzuni o'rganib chiqqandan so'ng o'tkazilgan ikkinchi test natijalari esa sezilarli darajada yaxshilanganini ko'rsatdi. Talabalarning katta qismi savollarga to'g'ri va asosli javob bera boshlagan, noto'g'ri javoblar soni keskin kamaygan. Ayrim talabalar yuqori natijalarga erishib, mavzuni qisqa vaqt ichida samarali o'zlashtira olganini namoyish etdi. Bu esa sun'iy intellektning tezkor axborot taqdim etish, tushuntirish va mustahkamlash imkoniyatlari bilan bog'liq.

Shuningdek, natijalar talabalarning o'rganishga bo'lgan qiziqishi ham oshganini ko'rsatdi. Ular mustaqil ravishda ma'lumot izlash, tushunmagan joylarini aniqlashtirish va o'z xatolarini tuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Umuman olganda, olingan natijalar sun'iy intellekt asosida



tashkil etilgan o'qitish jarayoni qisqa vaqt ichida ham yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini tasdiqlaydi. Bu esa mazkur texnologiyani ta'lim jarayoniga keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari sun'iy intellekt asosida o'qitish jarayonining samaradorligini tasdiqlagan bo'lsa-da, ularni chuqurroq tahlil qilish muhim hisoblanadi. Dastlabki test natijalarining past bo'lishi talabalarning yangi mavzuga tayyorgarliksiz kirishganini ko'rsatadi. Bu esa an'anaviy o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallashda qiyinchiliklarga duch kelishini yana bir bor isbotlaydi.

Ikkinchi bosqich natijalarining sezilarli darajada yaxshilangani esa sun'iy intellektning asosiy ustunliklarini namoyon etdi. Xususan, sun'iy intellekt vositalari orqali talabalarga qisqa vaqt ichida tushunarli, soddalashtirilgan va moslashtirilgan ma'lumotlar taqdim etildi. Bu esa o'rganish jarayonini tezlashtirib, bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam berdi. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellektni individual yondashuvni ta'minlovchi samarali vosita sifatida baholash mumkin.

Biroq, natijalarni mutlaq ustunlik sifatida qabul qilish to'g'ri emas. Chunki ushbu tajriba qisqa vaqt oralig'ida o'tkazilgan bo'lib, uzoq muddatli bilim saqlanish darajasini to'liq aks ettirmaydi. Bundan tashqari, talabalarning sun'iy intellektga haddan tashqari tayanib qolishi mustaqil fikrlash ko'nikmalarining susayishiga olib kelishi mumkin. Yana bir muhim jihat shundaki, sun'iy intellekt jonli muloqotni to'liq almashtira olmaydi, ayniqsa til o'rganishda kommunikativ kompetensiya muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqot natijalari sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish katta imkoniyatlar yaratishini ko'rsatsa-da, uni an'anaviy o'qitish metodlari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ham ta'kidlaydi. Eng samarali model sifatida sun'iy intellekt va o'qituvchi hamkorligiga asoslangan yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot SI asosida tashkil etilgan til o'qitish jarayoni qisqa vaqt ichida sezilarli natijalar berishini ko'rsatdi, biroq o'tkazilgan tajriba natijalari talabalarning dastlabki bilim darajasi past bo'lganiga qaramay, sun'iy intellekt vositalaridan foydalangan holda ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlari ancha yaxshilanganini tasdiqladi. Bu esa sun'iy intellektning tezkor o'qitish, tushuntirish va mustahkamlash imkoniyatlari yuqori ekanligini anglatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot sun'iy intellektni mutlaq yechim sifatida qabul qilish to'g'ri emasligini ham ko'rsatdi, negaki u uzoq muddatli bilimni mustahkamlash, jonli muloqot va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda an'anaviy o'qitish usullarining o'rnini to'liq bosa olmaydi. Demak, samarali natijaga erishish uchun sun'iy intellekt va an'anaviy ta'lim metodlarini uyg'unlashtirish zarur.

Umuman olganda, sun'iy intellekt til o'qitish jarayonini modernizatsiya qilishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Uni to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini tezlashtirish, individual yondashuvni ta'minlash hamda ta'lim sifatini oshirish mumkin. Kelgusida ushbu yo'nalishda yanada kengroq tadqiqotlar olib borish, ayniqsa uzoq muddatli samaradorlikni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayidaxon, U., & Ashurxon, M. (2025). ZAMONAVIY TA'LIMDA CHET TILLARINI O'RGANISHNING INNOVATSION USULLARI. TADQIQOTLAR, 71(1), 194-199.
2. Toshpulatova, F. (2026). CHET TILLARINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. World of Philology, 5(1), 124-130.



3. Abdixalilovich, E. U. (2025). ZAMONAVIY TA'LIMDA PEDAGOGIKA, TARJIMA VA CHET TILLARINI O'QITISHNING INNOVATSION METODLARI. KONFERENSIYA, 1(2), 653-657.
4. Gulamovna, K. S. (2025). TALABALAR UCHUN INGLIZ TILI O 'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(3), 469-471.
5. Kuldosheva, R. K., J. P. Kilichov, and T. Kh Suleymanov. "THE ROLE OF SIGN LANGUAGE IN SOCIETY." *УЧЕБНЫЙ XXI ВЕКА*: 23.
6. Kurbanovna Y. Z. SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF THE ORGANIZATION OF DISTANCE LEARNING //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 40-43.
7. Pirnazarova X. A., Eshmuradova H. D. Ingliz tilida ideomalar va tarjimadagi qiyinchiliklar //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 1480-1483.
8. Pirnazarova K. A., Eshmuradova H. D. Theoretical issues of formation of translation competence in the education system of the Republic of Uzbekistan //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 1481-1489.
9. Shaymanova, Nigora, et al. "Exploring the Role of Educational Workshops in Mitigating Environmental Degradation in High-Traffic Wildlife Tourism Zones." *Natural & Engineering Sciences* 10.3 (2025).
10. Sharipova, M. A., & Shukurov, U. B. (2025). CULTURAL SIGNS AND SYMBOLS AS A LINGUISTIC RESOURCE FOR IMPROVING STUDENTS'PHRASEOLOGICAL COMPETENCE. *Ustozlar uchun*, 83(2), 219-229.
11. Suleymanov, Timur, and Anora Kosimova. "EFFECTIVE WAYS OF TEACHING ENGLISH THROUGH GAMES, PRE-GAME AND POST-GAME ACTIVITIES." *Бюллетень студентов нового Узбекистана* 1.6 (2023): 5-7.
12. Suleymanov, T. K. (2024). THE SYNTACTICAL AND LEXICAL PECULIARITIES OF SENSORICS IN "HAIR" BY W. FAULKNER. *European Journal of Learning on History and Social Sciences*, 1(4), 93-98.
13. Suleymanov, T. X. "THE POETICS OF SOUTHERN GOTHIC AND ITS SENSORY DIMENSION IN WILLIAM FAULKNER'S WORKS." *Multidisciplinary and Multidimensional Journal* 5.3 (2026): 115-119.
14. Suleymanov, T. FEATURES OF W. FAULKNER'S STYLE. STREAM OF CONSCIOUSNESS.
15. Suleymanov, T., & Turabaeva, L. USING AI IN ASSESSMENT: OPPORTUNITIES, RISKS, AND PEDAGOGICAL IMPLICATIONS.
16. Yusupova Z. ACADEMIC DIGITAL WRITING SKILLS OF PHILOLOGY STUDENTS: CHALLENGES, ASSESSMENT, AND INSTRUCTIONAL DESIGN //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2026. – C. 150-153.
17. Yusupova Z. K. THE PHENOMENON OF PERSONAL SELF-DEVELOPMENT AS A FACTOR OF DISTANCE LEARNING IN A FOREIGN LANGUAGE //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 10. – C. 1274-1285.
18. Yusupova Z. Effectiveness OF Online Resources in Teaching Professional Vocabulary to Philology Students //Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal. – C. 675920.